

Xakimov Shuxrat Shodiyevich,
“Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi” davlat muassasasi
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”
kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: xakimovshuxrat727@gmail.com



ZAMONAVIY TA'LIMDA IJTIMOY-HISSIY INTELLEKTNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. *Ijtimoiy-hissiy intellekt zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Hissiy intellekt – o‘zini tushunish va boshqa odamlar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantirish.*

Аннотация. *Социально-эмоциональный интеллект стал неотъемлемой частью современного образования. Эмоциональный интеллект - формирование навыков, которые помогают понять себя и установить здоровые отношения с другими людьми.*

Annotation. *Socio-emotional intelligence has become an integral part of modern education. Emotional intelligence is the formation of skills that help to understand oneself and establish healthy relationships with other people.*

Tayanch so‘zlar: *hissiyot, Ijtimoiy-hissiy intellekt, hissiyot turlari, zamonaviy maktab ta’limi, psixokorreksiya.*

Ключевые слова: *эмоция, социально-эмоциональный интеллект, виды эмоций, современное школьное образование, психокоррекция.*

Keywords: *emotion, socio-emotional intelligence, types of emotions, modern school education, psychocorrection.*

Kirish. Ko‘p narsalarni bajaradigan zamonaviy odamning hayoti ijtimoiy rollar, uning atrofidagi ko‘plab odamlar bilan doimiy kommunikatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Shuning uchun, aloqa jarayonining samaradorligi masalasi ijtimoiy fanlarda doimo dolzarb bo‘lib kelgan¹.

¹ В.Я.Мачнев,Е.И.Чердымова. Социальный и эмоциональный интеллект. Монография. Самара Издательство Самарского университета, 2022. – 148 с.

***Psixologiyada
hissiy intellekt
(emotional
intelligence, EI)
tushunchasi keng
o'rganilgan.
1920-yilda
professor
E.Torndike
birinchi marta
ijtimoiy intellekt
tushunchasini
fanga kiritdi
va George
Washington
"Social
Intelligence"
testini ishlab
chiqdi.***

Psixologiyada hissiy intellekt (emotional intelligence, EI) tushunchasi keng o'rganilgan. 1920-yilda professor E.Torndike birinchi marta ijtimoiy intellekt tushunchasini fanga kiritdi va George Washington "Social Intelligence" testini ishlab chiqdi. Psixologiyada birinchi bo'lib 1964-yilda Michael Beldoch, 1975-yilda Claude Steiner ishlarida "emotional intelligence" tushunchasi ishlatildi. So'ng Govardom Gardnerom tomonidan modeli ishlab chiqildi va olimlar hissiy intellekt holatini batafsil o'rgana boshlashdi.

Ijtimoiy-hissiy intellekt tushunchasining turli xil talqinlari mavjud, ba'zan ijtimoiy-hissiy intellekt operatsiyalari hayot sharoitlari, shaxsiy ko'nikmalar bilan taqqoslanib, vaziyatlarni, kognitiv uslubni, rezolyutsiya rejaları, muammoli vaziyatni o'rganish uchun olib borilgan ishlar deb tushunilgan.

"Ijtimoiy intellekt – bu nazariy tushuncha, bir qator xulq-atvor xususiyatlarini soddalashtirish va umumlashtirish", deya ta'kidlagan J.Luger².

A.V.Dreval esa "Ijtimoiy intellekt bu o'z-o'zini o'rganish jarayonida yuqori darajadagi muammolarni hal qilish qobiliyatidir", deb izohlagan³.

Maqsad va uni asoslash. Zamonaviy ta'limda ijtimoiy-hissiy intellektning ahamiyati tobora ortib borayotgani aniq. Ijtimoiy-hissiy intellekt odamlarning boshqalar bilan muomala qilish, ijtimoiy munosabatlarda samarali ishlash va emotsiyalarning tushunilishi, boshqarilishida muhim rol o'ynaydi. Bu ta'limdagi yangi paradigmalardan va talablar bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni har bir mashg'ulotda rivojlantirib borishimiz zarur.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Zamonaviy ta'limda nafaqat texnik bilimlar, balki odamlar bilan muomala qilish, jamoada ishlash, ijtimoiy munosabatlar va emotsional holatlarni tushunish kabi ko'nikmalar ham muhim sanaladi. Maktab ta'limida ijtimoiy-hissiy intellekt o'quvchilarga jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy emotsiyalarni tushunish va ularga to'g'ri munosabat bildirishni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Dastlab ta'limda o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanib borishiga ham ahamiyat qaratishimiz lozim. O'quvchilarning ijtimoiy-hissiy qobiliyatlari, masalan, empatiya, muammolarni hal qilish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish kabi ko'nikmalar

² Salovey, P., Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9 (3). pp. 77.

³ Schutte, N. S., Malouff, J. M., Hall, L. E., Haggerty, D. J., Cooper, J. T., Golden, C. J., Dornheim, L. (2007). Development and validation of a measure of emotional intelligence. Personality and Individual Differences, 25(2). p. 52.

ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur. Bu ko'nikmalar zamonaviy ta'limda tolerantlik, ishonch, hamkorlik va yordam berishga qaratilgan bilimlarni olish uchun ham muhimdir. Ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy-hissiy tarbiya masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari shu kungacha ko'plab o'tkazib kelingan. Pedagoglar uchun ijtimoiy-hissiy intellektni tarbiyalash hamda o'quvchilarga emotsional salomatlik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida zimmasiga yuklangan. Buning uchun pedagoglar o'z bilim va tajribalari bilan o'quvchilar orasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishga intilishlari kerak bo'ladi. Maktab ta'limida psixologik va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish masalalari ahamiyatlidir. Maktab ijtimoiy muhit tushunchalarini o'z o'quvchilariga to'g'ri bergan bo'lsa, ular barcha o'quv talablari va majburiyatlarini ado etishga, ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilashga yordam beradi, chunki ularning o'zaro munosabatlari, xususan, emotsional intellektlari va ijtimoiy qobiliyatlari, o'qish va o'rganish jarayonini samarali qilishda muhimdir.

O'quvchi shaxsi kamolotga erishishida ijtimoiy integratsiya ham o'z o'rnida ahamiyatli. Zamonaviy ta'limda, yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham katta ahamiyat beriladi. Ijtimoiy-hissiy intellekt bu jarayonda o'quvchilarga hayotga va jamiyatga foydali shaxslar bo'lib yetishishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-hissiy intellekt zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib, o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuviga ham ta'sirni ko'rsatadi. U o'quvchilarning ijtimoiy faoliyati, psixologiyasi va shaxs sifatida kamol topishlarida muhim omildir.

Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish dolzarbligi so'nggi paytlarda o'qituvchilar va psixologlarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Bu hayot sur'atlarining tezlashishi, zamonaviy sharoitda bola ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, unda ko'pincha odamlar o'rtasidagi munosabatlarda tarbiya, mehribonlik, xayrixohlik, nutq madaniyati yetishmasligi kuzatiladi, bu esa odamdan jamiyatga ko'proq moslashishni talab qiladi.

Hissiyotlar va uning turlari. Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Zero, biz o'zimizga va boshqa barcha narsa-hodisalarga hissiyotlarimiz bilan ham javob beramiz. Bizga ayrim narsalar yoqsa, kayfiyatimiz ko'tariladi, boshqa bir narsalar yoqmasa, kayfiyatimiz tushib, dilimiz xira bo'ladi. Masalan, ba'zi ovqatlarni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo yoqtirmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi, boshqa bir odamlar esa yoqmaydi. Hissiyot – shaxsda barqaror va uzoq davom etadigan murakkab va doimiy hissiy

O'quvchi shaxsi kamolotga erishishida ijtimoiy integratsiya ham o'z o'rnida ahamiyatli. Zamonaviy ta'limda, yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham katta ahamiyat beriladi. Ijtimoiy-hissiy intellekt bu jarayonda o'quvchilarga hayotga va jamiyatga foydali shaxslar bo'lib yetishishga yordam beradi.

O'quvchi shaxsining ijtimoiy rivojlanishi bu boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganishi, muloqot, hamkorlik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirib borishi. Zamon talabi darajasida o'z-o'zini anglash – shaxsiy o'sishga va ijtimoiy kontekstda o'zini aniqroq idrok etishga yordam beradigan his-tuyg'ular, e'tiqodlar va qadriyatlarni anglash.

kechinmalar. Hissiy rivojlanish – his-tuyg'ularni tanib olish, ifoda etish va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati.

Hissiyotlar va hislar insonning o'zini chuqurroq bilishiga ko'maklashadi, insonlarning kechinmalarini, ularning o'zi bilan atrofdagilarning munosabatlarini aniqroq anglashga yordam beradi.

Kechinmalar tufayli inson o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, qadrini va kamchiliklarini biladi. Insonning yangi sharoitdagi kechinmalari insonning o'zida, odamlarda, tevarak muhitdagi predmet va hodisalarda nimadir yangilikni ochib beradi.

Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokazo. Hissiyotlarni kuchi, avvalo, yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lining kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liq. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez, kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra, his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: emotsiyalar, hissiy ton, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

O'quvchi shaxsining ijtimoiy rivojlanishi bu boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganishi, muloqot, hamkorlik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirib borishidir. Zamon talabi darajasida o'z-o'zini anglash – shaxsiy o'sishga va ijtimoiy kontekstda o'zini aniqroq idrok etishga yordam beradigan his-tuyg'ular, e'tiqodlar va qadriyatlarni anglash. O'quvchi shaxs empatiyasi esa boshqa odamlarga hamdard bo'lish, ularning his-tuyg'ulari va nuqtayi nazarlarini tushunish qobiliyati. O'quvchi shaxsiga maktab ta'limida o'z-o'zini boshqarish o'qituvchilar va ota-onalari tomonidan o'rgatib boriladi. Shunday bo'lsa-da, o'quvchi shaxs qiyin vaziyatlarda, kuchli salbiy hislarga ega bo'lganda o'z hissiyotlari impulslerini boshqara oladimi? Maktab ta'limi bilan bog'liq o'quv faoliyatining ta'siri qiyin vaziyatlarga ijtimoiy va madaniy me'yorlarga muvofiq munosabatda bo'lish qobiliyatini dars mashg'ulotlari jarayonlarida his qilib o'rganib borishi kerak bo'ladi.

Psixologiyada hissiy intellekt tushunchasi o'zingizning va boshqalarning his-tuyg'ularini tanib olish, tushunish, tartibga solish va ulardan foydalanish qobiliyati ekani ta'kidlanadi. Odatda, psixologik nazariyada ta'kidlangan hissiy intellektning bir nechta jihatlari yoki turlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *O'z-o'zini anglash* – bu insonning his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish, sabablari va oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Bunga o'zining

kuchli va zaif tomonlarini bilish, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonida ushbu omillarni hisobga olish kiradi.

2. *O‘z-o‘zini tartibga solish* – o‘quvchi shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish qobiliyati, ayniqsa, stressli yoki qiyin vaziyatlarda. Bunga impulsiv reaksiyalarga qarshi turish qobiliyati, shuningdek, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati kiradi.

3. *O‘quvchining o‘quv faoliyatdagi motivatsiyasi* – o‘quv faoliyatida maqsadlarga erishish uchun his-tuyg‘ulardan foydalanish qobiliyati. Bunga ichki motivatsiya, optimizm, imkoniyatlarni ko‘rish va ijobiy munosabatni saqlash qobiliyati kiradi.

Ijtimoiy hissiy intellekt (Social Emotional Intelligence) turlari ham bir nechta konsepsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu intellektning asosiy jihatlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ✓ *Shaxsiy hissiy intellekt* – o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash va ularni boshqarish qobiliyati. Bunga shaxsning o‘z hissiyotlarini tanishi, ularga munosabat bildirishi va u bilan boshqarishi kiritiladi.
- ✓ *Ijtimoiy hissiy intellekt* – odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va ular bilan samarali aloqa o‘rnatish qobiliyati. Ijtimoiy empatiya, boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish va ular bilan ishlash ko‘nikmalari ushbu turga kiradi.
- ✓ *Munozara va muammolarni hal qilish qobiliyati* – shaxs o‘zining ijtimoiy hissiyotli vaziyatlardagi muammolarini yoki konfliktlarini to‘g‘ri hal qilishga qaratilgan qobiliyati.
- ✓ *Ijtimoiy guruhlarda ishlash qobiliyati* – shaxsning katta jamoada boshqalar bilan o‘zaro ishlash, hamkorlik qilish qobiliyati. Bunda shaxs ijtimoiy holatlarda, jumladan, jamoa bilan muammolar yuzaga kelgan nizolarni hal qilishga qaratilgan xatti-harakatidir. Ijtimoiy guruhlarining aniq maqsadini bilish, undagi turli qatlamdagi shaxslar bilan birga yoki hamkorlikda ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

Ijtimoiy hissiy intellektning har bir turining inson hayotidagi ahamiyati katta, chunki ularning barchasi odamlarning o‘zaro munosabatlari va umumiy yashash sifatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Ta‘limda ijtimoiy-hissiy intellektning ahamiyati. Psixologiyada tuyg‘ular va hissiy rivojlanish haqidagi ilmiy ishlarni xorij olimlari K.E.Izard, S.L.Rubinshteyn, P.M.Yakobson, L.M.Vekker va boshqalar o‘rgangan holda, tuyg‘ularni shakllantirish va rivojlantirish maslalariga to‘xtalib o‘tishgan. Olimlar ijtimoiy-hissiy intellektning shakllanishi va

Ijtimoiy hissiy intellekt – odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va ular bilan samarali aloqa o‘rnatish qobiliyati. Ijtimoiy empatiya, boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish va ular bilan ishlash ko‘nikmalari ushbu turga kiradi.

**Bugungi kunda
psixologlar hissiy
intellektning
psixokorreksiyasi
bo'yicha o'quv
dasturlarini ishlab
chiqqan. Maktab
ta'limida o'quvchi
shaxsi ijtimoiy-
hissiyotlarni
boshqarish, turli xil
ijtimoiy ta'sirlarga
berilmaslik,
ijtimoiy salbiy
fikrlarni qabul
qilmaslik, ijtimoiy
stresslarga
qarshi kurasha
olish qobiliyatini
shakllantirib
borish lozimdir.**

unga tegishli hissiy sohaning asosiy rivojlanishi bolalik davrida sodir bo'lishi haqida tushuntirish berishgan.

Ta'limda ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish orqali nafaqat o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari yaxshilanadi, balki ular hayotga tayyor, ijtimoiy mas'uliyatli va empatik insonlar bo'lib yetishadilar. Maktab ta'limida o'quvchilarni o'z bilimlari doirasida yaxshi qarorlar qabul qilishga o'rgatib borish zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning hissiy intellekti rivojlanishi ularning to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qilishiga yordam beradi, chunki ular o'z his-tuyg'ulari va boshqalar hissiyotlarini yaxshiroq tushunadilar.

Ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish usullari. Bugungi kunda psixolog mutaxassislar o'quvchida zamonaviy ta'limda hissiy intellektni qanday rivojlantirish kerakligi bo'yicha ko'plab mashg'ulot turlari va psixokorreksion o'quv dasturlarini ishlab chiqishmoqda. Maktabda ijtimoiy hissiy intellektni rivojlantirishda dastlab maktab psixologi bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, maktab rahbariyati, o'qituvchilari va maktab psixologi tomonidan o'quv uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Maktab o'quvchisida ijtimoiy hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar malakali psixolog tomonidan ko'rib chiqilishi lozim. Maktabda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda bularga amal qilinishi darkor. Maktabda sinflararo amaliy mashg'ulotlarda tatbiq etilishi kuzatilib borishi lozim. Sinf rahbarlari o'quvchilarning ota-onalari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarga munosabatlari ham bahs-munozaralarga olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Maktab darslarida maktab o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlaydigan o'quv faoliyatini tashkil etishga yordam berish lozim.

Zamonaviy ta'limda o'quvchi shaxsida hissiy intellekt nafaqat shaxsiy his-tuyg'ularni yengishga, balki boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lishga, ishonchli va samarali munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

Bugungi kunda psixologlar hissiy intellektning psixokorreksiyasi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqqan. Maktab ta'limida o'quvchi shaxsi ijtimoiy-hissiyotlarni boshqarish, turli xil ijtimoiy ta'sirlarga berilmaslik, ijtimoiy salbiy fikrlarni qabul qilmaslik, ijtimoiy stresslarga qarshi kurasha olish qobiliyatini shakllantirib borish lozimdir. Bunda quyidagi xarakterli xususiyatlar mavjudligi yoki yo'qligini ko'rib chiqamiz va izoh beramiz.

Yakuniy qism. O'quvchi va o'qituvchi muloqoti jarayonlarida "refleksiya"dan foydalanamiz. Bunda o'qituvchi "Namuna" usulidan

foydalanadi, chunki har qanday negativ vaziyatlarga o'qituvchi o'zi namuna bo'la olishi lozim. Maktab ta'limi uchun ijtimoiy hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va mashg'ulotlar quyidagicha berilgan:

- *“O'quvchi va o'qituvchi suhbatlari” usuli.* Bunda o'qituvchi o'z suhbatida ijtimoiy hodisalarga to'g'ri munosabatlarni shakllantirib borishi kerak.
- *O'quvchi bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish.* O'qituvchi mashg'ulot jarayonlarida ishonch tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan turli vazifalarni berib boradi. O'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi, hamkorlikdagi sheriklariga ishonchini uyg'otishi lozim. Kelgusi strategik ishlarni rejalashtirishda davlatimizda olib borilayotgan islohotlarga ishonch bildirishi kabi ko'rsatmalarni bera olishi lozim.
- *O'qituvchi o'quvchining ma'naviy bilimlarini oshirib borish.* O'quvchi shaxsga o'z ustida ishlash, o'zining ma'naviy bilimlarini oshirishga qaratilgan kitoblar, adabiyotlarni tavsiya etib borishi darkor.
- *O'quvchining pozitiv psixologik ustanovkalarini shakllantirish.* O'quvchi shaxsida tashqaridagi turli xil ta'sirga berilmaslik uchun pozitiv ustanovkalarni shakllantirib borishiga imkoniyat berishi kerak bo'ladi. Masalan, “Men o'z aqlimning zaiflashib ketishiga yo'l qo'ymayman. Uning uchun biror foydali ishlar bilan shug'ullanaman va jamiyatga o'z foydamni keltirishiga xizmat qilaman”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bar-On, R. (2006). *The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI)*. *Psicothema*, 18, pp. 13-25.
2. Côté, S., & Miners, C. T. H. (2006). *Emotional intelligence, cognitive intelligence, and job performance*. *Administrative Science Quarterly*, 51(1), pp. 1-28.
3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
4. Goleman, D. (1998). *Working with Emotional Intelligence*. Bantam Books.
5. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). *Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), pp. 185-211.
6. Schutte, N. S., Malouff, J. M., Hall, L. E., Haggerty, D. J., Cooper, J. T., Golden, C. J., & Dornheim, L. (2007). *Development and validation of a measure of emotional intelligence*. *Personality and Individual Differences*, 25(2), pp. 167-177.

